

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjayeva
29- avgust 2025- yil

FALSAFAGA KIRISH
FANINING O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	200 000 – San’at va gumanitar fanlar
Ta’lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	60220500 – Falsafa

QO‘QON – 2025

Fan / modul kodi Fal132		O'quv yili 2025-2026	Semestr 1/2/3/4/5/6	ECTS – Kreditlar 6 /6/6/4/4/6
Fan / modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4/4/4/4/4/4
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Falsafa tarixi	60/60/60/60/60/60	120/120/120/30/60/120	180/180/180/120/120/180
2.	I. Fanning mazmuni Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda falsafaning predmeti, mazmuni va metodologik xususiyatlari bo'yicha zamonaviy ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, dunyoqarash shakllarining tarixiy rivojlanishini va falsafaning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini tahlil qilish, falsafaning asosiy bo'limlari (ontologiya, gnoseologiya, aksiologiya, antropologiya va sotsial falsafa)ni o'rganish orqali inson, jamiyat va tabiat munosabatlarini tushuntirish, falsafiy nazariyalarni tanqidiy o'rganib, ularni amaliy hayotiy jarayonlarga tatbiq etish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Fanning vazifalari - Talabalarda falsafiy dunyoqarashni shakllantirish, tarixiy falsafiy maktablar va asosiy kategoriyalar bilan tanishtirish, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda falsafiy bilimlarni amaliy hayotiy jarayonlarga tatbiq etishga o'rgatishdir. Fanning yetakchi TOP-300 xalqaro universitetlari dasturi asosida tayyorlanganligi: Falsafaga kirish fani dasturi dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalaridan biri bo'lgan Boston universitetining "Falsafaga kirish" fanining o'quv dasturi asosida takomillashtirilgan. Mazkur universitet QS World University Rankings 2024 bo'yicha 88-o'rinni egallagan bo'lib, ushbu sohada yuqori malakali ilmiy-uslubiy bazaga ega. Dasturda quyidagi asosiy jihatlar inobatga olingan: Nazariy va amaliy yondashuv uyg'unligi – Oxford universitetining falsafaga kirish kursida falsafa va uning predmeti, bilish va haqiqat muammolari, erkin iroda va ong–badan bog'liqligi, axloq va hayot masalalari, tarixiy falsafa: antik va modern davr, global etik va jamiyat falsafasiga doir nazariy va amaliy bilim, ko'nikmalarni tartibga solish amaliyoti keng yoritiladi. Xalqaro standartlarga muvofiqlik – dastur xalqaro ta'lim me'yorlari, xususan, ilmiy madaniyat normalari va qoidalarini, dunyoni tanqidiy idrok etishning samarali texnologiyalarini, shuningdek, media etikasi va qonunchiligini hisobga olgan holda multimedia kontent vositalaridan foydalangan holda media bozorini ilgari surish va boshqaruv prinsiplari asosida boyitilgan.			

	Tanqidiy fikrlash va tahlil ko‘nikmalarini rivojlantirish – talabalar dunyodagi axborot oqimini tanqidiy idrok etish, mustaqil tahlil qilish, dalillarga tayangan holda xulosa chiqarishni o‘rganadilar.
3.	II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-mavzu: Kirish. Falsafaning predmeti, kelib chiqishi va metodologik xususiyatlari Asosiy falsafiy mavzularni sinchiklab o‘rganish orqali falsafiy faoliyatning mohiyatini tanishtiradi. Mavzular haqiqat tabiati, bilim, Xudoning mavjudligi va inson hayotining ahamiyatini o‘z ichiga olishi mumkin. Tanqidiy fikrlash va falsafiy so‘rov va hayotning ma’nosi. Falsafiy tadqiqot va hayotning ma’nolari, axloqiy mulohazalar, tanqidiy fikrlash. Falsafaning etimologiyasi, asosiy savollari (“Borliq nima?”, “Bilim qanday hosil bo‘ladi?”, “Haqiqat nima?”), falsafaning fanlar tizimidagi o‘rni, metodologik usullari (dialektika, analitika, fenomenologiya, krititsizm). 2-mavzu: Dunyoqarash shakllari: mif, din, falsafa va ilm Mifologik tafakkurning obrazliligi, dinning aqidaviy asoslari, falsafaning tanqidiy -rasional mohiyati, ilmiy bilishning empirik va nazariy shakllari. Oxford kursidan ilhom: bilim va haqiqat muammolari. 3-mavzu: Antik falsafa va Sharq falsafiy tafakkuri Sofistlar, Suqrot, Platon va Aristotel qarashlari; Sharqda Forobiy, Ibn Sino, Beruniy va boshqa mutafakkirlarning borliq va bilim haqidagi konsepsiyalari. 4-mavzu: O‘rta asr falsafasi va Uyg‘onish davri tafakkuri Skolastika, Avgustin va Foma Akvinskiy qarashlari; islom kalomi va tasavvuf; Uyg‘onish davrida insonparvarlik, san‘at va ilmiy tafakkurning yuksalishi. 5-mavzu: Yangi davr falsafasi va subyekt–obyekt munosabatlari Ratsionalizm (Dekart, Spinoza, Leybnits) va empirizm (Bekon, Lokk, Gyum); bilishda subyekt va obyektning o‘zaro ta’siri. 6-mavzu: Nemis klassik falsafasi I. Kantning transsendental falsafasi, Fihte va Shelling qarashlari, Gegel dialektikasi va absolyut ruh ta’limoti. 7-mavzu: XIX asr falsafiy paradigmalari Marksizm va tarixiy materializm, Nitsshening “qudrat irodasi” konsepsiyasi, pozitivizmning shakllanishi.

8-mavzu: XX asr G'arb falsafasi

Fenomenologiya (Husserl), ekzistensializm (Haydegger, Satre, Kamyu), analitik falsafa (Rassel, Vitgenshteyn), neopozitivizm va postmodernizm. (Oxford kursidan ilhom: erkin iroda, ong va tanani bog'lash muammosi).

9-mavzu: Sharqning zamonaviy falsafiy oqimlari

Sharqda milliy uyg'onish davridagi falsafiy tafakkur, zamonaviy o'zbek falsafasining rivojlanish yo'nalishlari, islomiy falsafaning yangi talqinlari.

10-mavzu: Ontologiya: borliq haqidagi fundamental ta'limot

Borliq tushunchasi, substansiya, jarayon, hodisa, makon va vaqt falsafiy talqinlari; monizm, dualizm va plyuralizm konsepsiyalari.

11-mavzu: Gnoseologiya: bilish nazariyasi

Bilishning manbalari, sezgi va tafakkurning o'rni, skeptitsizm va agnostitsizm, haqiqat va uning mezonlari, bilim va ishonch farqi (Oxford kursi: "What can we know?" savoli).

12-mavzu: Aksiologiya va axloq falsafasi

Qadriyatlar kategoriyasi, axloqiy ong, yaxshilik va yomonlik tushunchalari, utilitarizm, deontologiya va ekzistensial etik qarashlar.

13-mavzu: Inson falsafasi

"Inson mohiyati nima?", individ, shaxs va shaxsiyat tushunchalari, erkinlik va mas'uliyat, ekzistensializm da "insonning tashlanganligi" g'oyasi.

14-mavzu: Jamiyat falsafasi

Jamiyatning paydo bo'lishi, ijtimoiy taraqqiyot nazariyalari, fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat, madaniyat va sivilizatsiya konsepsiyalari.

15-mavzu: Zamonaviy global muammolar va falsafaning XXI asrdagi ahamiyati

Ekologik muammolar, texnologik taraqqiyot, axborotlashuv va sun'iy intellekt, globallashtirish va madaniyatlararo muloqot, XXI asr falsafasining istiqbollari. Oxford kursidan ilhom: "How should we live?" – insoniyat kelajagi haqida falsafiy mulohazalar.

III. Seminar mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlari Falsafa tarixi fani bo'yicha bilimlarni kengaytirishni va chuqurlashtirishni, talabalarning ilmiy tadqiqot ishlariga yo'naltirilgan, bilim qobiliyatlarini o'stirish, ma'ruzada bayon qilingan nazariy bilimlarni mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Shuningdek, talabalarda yangi pedagogik texnologiyalarga ko'nikmalar xosil qilish va boshqalardan iborat.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1-MODUL (I-semestr)

- 1-mavzu: Kirish. Falsafaning fanining predmeti, kelib chiqishi va metodologik xususiyatlari
- 2-mavzu: Dunyoqarash shakllari: mif, din, falsafa va ilm
- 3-mavzu: Antik falsafa va Sharq falsafiy tafakkuri
- 4-mavzu: O'rta asr falsafasi va Uyg'onish davri tafakkuri
- 5-mavzu: Yangi davr falsafasi va subyekt–obyekt munosabatlari
6. Nemis klassik falsafasi
- 7-mavzu. XIX asr falsafiy paradigmalari
- 8-mavzu: XX asr G'arb falsafasi
- 9-mavzu: Sharqning zamonaviy falsafiy oqimlari
- 10-mavzu: Ontologiya: borliq haqidagi fundamental ta'limot
- 11-mavzu: Gnoseologiya: bilish nazariyasi
- 12-mavzu: Aksiologiya va axloq falsafasi
- 13-mavzu: Inson falsafasi
- 14-mavzu: Jamiyat falsafasi
- 15-mavzu: Zamonaviy global muammolar va falsafaning XXI asrdagi ahamiyati

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaning bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Falsafaning predmeti va metodologik xususiyatlari – falsafiy bilishning o'ziga xosligi va boshqa fanlardan farqi.
2. Mifologiya, din va ilm – dunyoqarash shakllarining qiyosiy tahlili.
3. Sharq mutafakkirlarining falsafiy qarashlari – Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Ulug'bek merosi.
4. Suqrot, Platon va Aristotel falsafasi – qadimgi yunon falsafasining asosiy g'oyalari.
5. Uyg'onish davri falsafasi – insonparvarlik va ilmiy tafakkurning rivojlanishi.
6. Yangi davr falsafasida bilish nazariyasi – Dekart, Lokk va Spinoza qarashlari.
7. Kant falsafasida bilish muammosi – transsendental metod va “a priori” bilim tushunchasi.
8. Hegel dialektikasi – dialektikaning tamoyillari va qonunlari.
9. Ekzistensializm va fenomenologiya – inson mavjudligi va ong muammolari.
10. Ontologiya masalalari – borliq, makon, vaqt va substansiya haqidagi turli talqinlar.

	11. Gnoseologiya va haqiqat muammosi – bilish jarayonida haqiqatning nisbiy va mutlaq shakllari. 12. Global muammolar va falsafaning XXI asrdagi ahamiyati – ekologiya, texnologiya va axborotlashuv kontekstida falsafiy tahlil.
4.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: – falsafaga oid asosiy bilim va tasavvurlarga ega bo‘ladi, mustaqil va ijodiy fikrlay oladi hamda olgan bilimlarini amaliyotda qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi; – bakalavriatning mos yo‘nalishi bo‘yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo‘ladi; – falsafaning predmeti, kategoriyalari, metodologiyasi va rivojlanish bosqichlarini, dunyoqarash shakllarini hamda falsafaning jamiyat ma‘naviy hayotidagi o‘rmini biladi; – falsafiy oqim va maktablarni o‘rganish, ularni xolisona baholash, mumtoz va zamonaviy falsafiy qarashlarni tahlil qilish, voqelikka oqilona mantiqiy munosabat bildirish, falsafiy fikrlarni tushunib sharhlash va shaxsiy pozitsiyasini ifoda etish ko‘nikmalariga ega bo‘ladi; – falsafiy tafakkur taraqqiyoti jarayonidagi o‘zgarishlarni qiyosiy tahlil qilish, zamonaviy global muammolarga falsafiy yondashuvlarni tushunish, dunyoqarashni rivojlantirishga salbiy ta‘sir ko‘rsatuvchi omillarni farqlash, falsafiy metodologiyani amaliy hayotiy vaziyatlarda qo‘llay olish malakalariga ega bo‘ladi.
5.	VI. Ta’lim texnologiyalari va metodlari: – ma’ruzalar; – seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); – guruhlarda ishlash; – taqdimotlar qilish;
6.	VII. Kreditlarni olish uchun talabalar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to‘la o‘zlashtirish, tahlil natijalarini to‘g‘ri aks ettira olish, o‘rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo‘yicha belgilangan test yoki yozma ishni topshirishi zarur.
7.	Asosiy adabiyotlar 1. Shermuxammedova N. Falsafaga kirish. Toshkent, Innovatsiya-Ziyo. 2021. 2. Tulenov J, Tulenova K, Tulenova G. Falsafa. Toshkent, Ziyo, 2022. 3. Yuldasheva M. Falsafa, Namangan, Usmon Nosir media. 2025.

	4. Muhammadjonova L., Abdulla Sher, Shadimetova G. Axloq falsafasi. Darslik. — Toshkent.: Universitet. O ‘zMU, 2023. -247-b. 5. Muhammadjonova L. Amaliy etika va estetika. O ‘quv qo‘llanma. — T.: Mumtoz so‘z, 2022.-269-b. 6. https://www.bu.edu/academics/cas/courses/cas-ph-100/ 7. https://explorecourses.stanford.edu/search?view=catalog&filter-coursestatus-Active=on&page=0&catalog=&academicYear=&q=PHIL+2%3A Zamonaviy xorijiy adabiyotlar 8. Blackburn, S. Think: A compelling introduction to philosophy. — Oxford : Oxford University Press, 1999. 9. Pojman, L., Vaughn, L. Philosophy: The quest for truth. — Oxford : Oxford University Press, 2005. 10. Rachels, J., Rachels, S. The elements of moral philosophy. — 10th ed. — New York : McGraw-Hill, 2023. 11. Soames, S. The world philosophy made: From Plato to the digital age. — Princeton : Princeton University Press, 2019. 12. Kenny, A. A new history of Western philosophy. — Oxford : Oxford University Press, 2010. 13. Nagel, T. What does it all mean? A very short introduction to philosophy. — New York : Oxford University Press, 1987. 14. Warburton, N. Philosophy: The basics. — 6th ed. — London : Routledge, 2018. Qo‘shimcha adabiyotlar 15. Гобозов И. А. Философия истории. — Москва, 2006. 16. Крапивенский А. О. Социальная философия. — Москва, 2007. 17. Юлдашев С. А. Антик фалсафа. — Тошкент, 1999. Elektron manbalar 15. www. ziyouz.uz. 16. www. ziyouz.uz. 17. www. pedagog.uz. 18. www.edu.uz 19. https://lifelong-learning.ox.ac.uk/courses/introduction-to-philosophy-online?utm_source
8.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan.
9.	Fan/ modul bo‘yicha mas’ullar:

	G.Boyqo‘ziyeva – Qo‘qon DU Falsafa va Dinshunoslik kafedrası dotsenti v.b, falsafa doktori (PhD). B.Shamsiddinov – Qo‘qon DU Falsafa va Dinshunoslik kafedrası mudiri, v.b. dotsent, falsafa doktori(PhD).
10.	Taqrizchilar: I.B.Siddiqov- FarDU, falsafa fanlari doktori (DSc) O.Ortiqov – QDU, Milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası kafedrası dotsenti, falsafa doktori (PhD).